

# DORIVOR SENNA ANGUSTIFOLIA: TIBBIY QO‘LLANILISH IMKONIYATLARI VA FARMAKOLOGIK AHAMIYATI

**Begmatov Abdusamat Mamatqulovich**

Termiz davlat universiteti, dotsent. Termiz, Uzbekistan

**Annotatsiya.** Maqolada *senna angustifolia* ning tibbiyotda ishlatilishi xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** лекарство, *S. angustifolia* (Vahl), *S. Acutifolia* (Delile), *S. angustifolia*, *S. acutifolia*, *S. obuvata*

**Абстракт.** В статье приведены сведения о лечебных свойствах сенны узколистной.

**Ключевые слова:** *S. angustifolia* (Vahl), *S. Acutifolia* (Delile), *S. angustifolia*, *S. acutifolia*, *S. obuvata*

# MEDICINAL SENNA ANGUSTIFOLIA: THERAPEUTIC APPLICATIONS AND PHARMACOLOGICAL SIGNIFICANCE

**Begmatov Abdusamat Mamatkulovich**

Termiz State University, dotsent. Termiz, Uzbekistan

**Abstract.** The article provides information about the medicinal properties of *senna angustifolia*.

**Key words:** medicine, *S. angustifolia* (Vahl), *S. Acutifolia* (Delile), *S. angustifolia*, *S. acutifolia*, *S. obuvata*

O’tkir bargli sanno o’simligi bargida 6,17%, mevasida 2,70%, tor bargli sanno bargida esa 3,77%, mevasida 4,6% gacha antrasen unumlarining yig’indisi (sennozid A, sennozid V, sennozid S, sennozid E, rein, aloy-emodin, glyuko-aloy-emodin, glyukorein va boshqalar) bo’ladi. Sanno barglari tarkibida antrasen unumlaridan tashqari, flavonoidlar (izoramnetin, kempferol va ularning glikozidlari) hamda salitsilat va boshqa organik kislotalar, smolalar va juda oz miqdorda alkaloidlar bor.

Mevasi tarkibida smola bo'lmaydi. Antrasen unumlari sanoning yosh barglarida ko'p to'planib, barg qarigan sari ular miqdori ham kamayib boradi. Agar o'tkir bargli sanno tarkibidagi antrasen unumlarining yosh barglardagi umumiy miqdori 5,8% bo'lsa, barg sathi kattalashgan sari, bu birikmalar kamayib, oxirida 3,8%) qoladi.

Sanno bargining asosiy ta'sir etuvchi glikozidlari - sennozid A va sennozid V gidroliz natijasida qand qismi - glyukoza va aglikonlari - sennidin A va sennidin V ga parcha-lanadi. Bu birikmalar bir-birining sterioizomerlari bo'lib, sennidin A optik faol (kuchli fiziologik ta'sir ko'rsatadi), sennidan V esa optik faol emas (fiziologik ta'siri ancha kuchsiz). Hindistonning quruq (namlik kam bo'ladigan) tumanlarida o'sadigan tor bargli sanno bargi tarkibiga 4,23% gacha sennozidlar va 3,54% gacha rein bo'ladi.

*S. angustifolia* (Vahl) Batka-ingichka bargli sano *S. Acutifolia* (Delile) Batka-o'tkir bargli sano, *S.tora*-to'mtoq bargli sanno turlarining barglari va urug'larida antraglikozid, flavonoidlar mavjud bo'lib, asosan surgi dori sifatida, organizmni yumshatuvchi, shuningdek ozdirish maqsadida istemol qilinadi.

Ilmiy tabobatda hozirgi vaqtda dorivor o'simlik sifatida foydalanish uchun ruxsat etilgan. Sobiq Ittifoq Davlat farmakologiyasiga kiritilgan. *S.angustifolia*, *S.acutifolia* ning barglari, yangi novdalarining ekstraktidan Senadeksin (Senadexinum) tabletkasi tayyorlanadi. Ukraina va Xindiston davlatlarida bu dori turi ishlab chiqarilib, boshqa davlatlarga eksport qilinadi.

*S.angustifolia* - O'rta Yer dengizi florasida (Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Saudiya Arabistoni) tabiiy holda tarqalgan bir yillik o'tsimon o'simlik. O'simlikning yer ustki qismi qadimdan xalq tabobatida va ilmiy tibbiyotda ishlatib kelingan. Uning xom ashyosi Yevropaga Shimoliy Afrikadan Aleksandriya porti orqali olib kelinganligi sababli o'simlikning tijorat nomi Aleksandriya bargi (Aleksandriyskiy list) deb ham yuritiladi.

*S.angustifolia*, *S.acutifolia*, *S.obuvata* Collad. turlari Respublikamizning Surxandaryo viloyatida madaniy holda o'stirilishi va ko'paytirilishi adabiy manbalarda keltirilgan. Hozirgi kunda yuqoridagi turlar O'zbekiston sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda qisman ekib o'stiriladi. Tabiblar, savdogarlar tomonidan, Sobiq Ittifoq va boshqa davlatlar orqali Respublikamizga urug'lari keltirilib, qiziquvchilar tomonidan tamorqalarda ham ekiladi. Hozirda halq tabobatida urug'lari va barglari ishlatiladi, shuningdek bozorlarda dorivor o'simliklar qatorida sotiladi.

Respublika dori-darmon ishlab chiqarish sanoati «O'zfarmkonsern» buyurtmasi asosida, sho'r yerlarda dorivor o'simliklarning introduksiyasi va bioekologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida O'zbekistonning Mirzacho'l va Buxoro vohasida bir qancha dorivor o'simliklar qatorida *S.angustifolia*, *S.acutifolia*, *S.tora* larning sho'rga chidamligi, introduksiya natijalarini tahlillash asosida introduksion baholash ishlari ustida tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqot natijalarida tuproqlarning 2 xil sho'rlanish darajasida, urug'larning unuvchanlik va saqlanish darajalari aniqlanib, o'rta va kuchli sho'rlangan yerlarda o'simliklarning o'sishi va rivojlanish uchun sho'rlanish darajasining yuqoriligi, havo haroratining ko'tarilishi ularning o'sishdan to'xtab, qurib qolishiga sabab bo'lishi aniqlangan [9].

*S.tora* er yuzida Shimoliy va Sharqiy Afrika, Xindiston, Xitoy, Yaponiyaning tropik qisimlarida tabiiy sharoitda keng tarqalgan. Bir yillik kosmopolit o'simlik. Asosan, Xitoyning Shensi, Xubey va Kvantun provinsiyalarida dorivor o'simliklar qatorida o'stirilib, xomashyo olish maqsadida katta ekin maydonlari tashkil etilgan. *S. tora* ning mahalliy nomi Angliyada-*Wild senna*, Yaponiyada-*Ebisugusa* deb nomlanadi.

O'tkir bargli sanno - *Senna angustifolia* Del. ning vatani Misr (Nil daryosining o'rta oqimi) va Sudan hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning iqlimi issiq, yilning eng sovuq kunlarida havo harorati kamdan-kam xolatlarda 5-10<sup>0</sup>S dan pasayadi. O'zbekistonda dorivor o'simlik sifatida madaniylashtirilgan. Sanno

o'simligini yetishtirish uchun eng ma'qul joy, Surxandaryo viloyatining Denov tumani xisoblanadi.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Sanno preparatlari surgı dori sifatida ishlatiladi. Bargi tarkibida smolalar spirtda va qaynoq suvda eriydi, bu smolalar ichakni og'ritish xususiyatiga ega. Shuning uchun tayyorlangan damlamani sovutib smolani filtirlab qo'llaniladi. Barglari tarkibida antroglıkozıdlar (6% gacha), mevasida antretsen unumlari (sennozıd A, rein, aloy-emodin va boshqalar) mavjud.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, o'tkir bargli sano o'simligi xalq tabobatida 3000 yildan beri ishlatib kelinadi. Rus tabıblari uni 99 dardga darmon giyoh deb atashgan. Shuningdek, ruslarda qo'yidagicha maqol bor: «Nonni bug'doysız yopib bo'lmaydi, dardni sanosız davolab bo'lmaydi».

O'tkir bargli sanno tarkibidabargida 6,17%, mevasida 2,7%, tor bargli sanno bargida 3,77%, mevasida 4,60% gacha antrasen unumlari bo'lib, ular sennozıd A va V, S, D, rein, aloy-emodin, glyuko-aloy-emodin va boshqalardan tashkil topgan. Antrasen unumlardan tashqari flavonoid, organik kislotalar va oz miqdorda alkaloidlar bor.

I.A. Damirov va boshqalarning [1982] fikricha, o'simlikning yosh barglarida va pishgan mevalarida antrasen unumlari ko'p bo'ladi. Asosiy moddasi hisoblangan sennozıdlar gidroliz qilinsa aglikon sennedin A va V ga va glyukozaga parchalanadi. Surgı sifatida ishlatiladi. Barg tarkibidagi smolalar qorinni og'ritgani uchun, tayyorlangan damlamani sovutiladi, cho'kkan smolalardan filtrlab olinadi va iste'mol qilinadi. Ba'zan barg tarkibidagi smolalarni spirtda eritib olib tashlanadi va dori turlari tayyorlanadikasalliklarini davolashda foydalanganlar.

**Dorivor preparatlari.** Barg damlamasi - *Infusum foliorum Sennae*, murakkab qizilmiya poroshogi - *Pulvis Glycyrrhizae compositus* tarkibiga kiradi. Sano surgı sifatida ishlatiladigan va bavirusil kasalligida qo'llaniladigan yig'malar tarkibiga kiradi.

**Tayyor dorilar:** Tabletka senade, glaksen (Hindiston), tabletka senna (Gruziya), tabletka senadeksin (Tosh. xim-farm.zavod) chiqariladi.

Abu Ali Ibn Sino aytadiki, dorilarning bazilari madanlardan, bazilari o'simliklardan va boshqa xayvon jinslaridan olingan bo'ladi [Xolmatov va boshq., 1994].

Hamdamov I., Shukurullaev P., Tarasova Ye va boshqalar [1990] yozishicha Abu Ali Ibn Sino o'zining II kitobini dorishunoslikka bag'ishlangan bo'lib, unda o'simlik, ma'dan va hayvonlardan olinadigan 811 ta sodda dorilarning nomini alifbo tartibida joylashtirib, ularni ta'riflari va har bir dorining qaysi kasallikka davo ekanligi ko'rsatilgan.

O'simliklardan olinadigan dorilar, ularning yaproqlaridan, donlaridan, ildizlaridan, shoxlaridan, po'stloqlaridan, gullaridan, mevalaridan, iborat bo'ladi. (Tib qonunlari)

Tibbiyotda sanno turlarining bargi va mevasidan foydalaniladi. Bargi o'simlik gullaganda yig'iladi va soyada, mevasi yetilganda terib olinib, ochiq havoda - quyoshda quritiladi.

Sanno bargi va mevasi tarkibida antraglikozidlar, flavonoidlar, smola va boshqa moddalar bo'ladi. Sanno qadimdan tabobatda keng miqyosda ishlatilib kelingan dorivor o'simliklardan. Bargining damlamasidan Ibn Sino bod, jigar va sariq kasalliklarini davolashda hamda surgi sifatida foydalanilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Amonturdiev Q, Xoliqov Q. Makkaisano (cassia)ni bioekologik xususiyatlari. Janubiy O'zbekiston xomashyobop o'simliklarini o'rganish. Termiz, 2003. 5-6 bet.
2. Amonturdiev Q, Mamanazarov R. Makkaisanoni ahamiyati. Janubiy O'zbekiston xomashyobop o'simliklarini o'rganish. Termiz, 2003. 3-4 bet
3. Ashurmetov O.A., Karshibaev X.K. Reproduktivnaya biologiya solodki i razdelnolodochnika. – Tashkent, Fan, 1995. – 212 s.

4. Ashurmetov O. A., Qarshiboev X. Q., Qo'ziev Shirinmiya (foydali xususiyatlari, bioekologiyasi va ko'paytirish usullari). – Toshkent: Guliston DU bosmaxonasi, 2005. – 99 b.
5. Ashurmetov O.A. Metodika izucheniya semennoy produktivnosti rasteniy na primere vidov roda *Glycyrrhiza* L. // Uvelichenie kormoproizvodstva na nauchnoy osnove: Tez. dokl. Resp. nauch. konf. – Tashkent, 1982. – S. 50-52.
6. Begmatov A.M., Toshboev E.E. Acute deciduous thanks giving (*senna angustifolia* Del.) bioecology and medicinal properties. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. Amerika. 2022-yil, 208-214 bet.
7. Berdiev E.T., Axmedov E.T. Tabiiy dorivor o'simliklar (o'quv qo'llanma). - Toshkent, O'zR FA Minitipografiyasi, 2018. - 188 bet.